

# **Namangan viloyati sharoitida urug'li meva daraxtlarida uchraydigan zararkunandalar.**

**SH. X. Yusupova**

**NamDu Biologiya kafedrası**

Насекомые вредители наносят большой ущерб на плодородие фруктовых деревьев. Они относятся к разным систематическим группам. Вредители повреждают корень, стебель, листья, цветы, почки и плоды деревьев. В сегодняшнее время науке известно 33 видов вредителей яблони, 30- груши. Поэтому нужно проводить исследования по изучению видового состава, биологии насекомых вредящих плодовым деревьям.

Bog'dorchilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Keying yillarda bog'dorchilikni rivojlanishiga aloxida etibor birilmoqda jumladan, bog'larni yoshartirish (iski kam hosili bog'lar urniga yangi sir hosil bog'lar tashkil etish entsiv texnologiyaga asoslangan bog'lar barpo etilmoqda, yangi zamonaviy agrotexnika joriy etilmoqda. olib borilayotgan ishlar O'zbekiston aholisini yil davomida meva bilan taminlash, chet mamlakatlarga xo'l va quritilgan meva sotish maqsadida tashkil etilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun mavjud bog'lardan sifatli va yuqori hosil olish lozim bo'ladi. Bog'lardan yuqori va sifatli hosil olishning eng muxim omillaridan biri o'sdimliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishdir[4,5].

O'zbekiston iqlimi, tog' oldi, tog' zonolari sug'oriladigan dehqonchilik zonalarida turli xil zararkunandalarning rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi.

Bog'larda zararkunanda hashorotlarning o'nlab turlari zarar keltirishi aniqlangan. Jumladan olma daraxtiga 33 tur, nok daraxtiga 30 tur zararkunandalarning zarar keltirishi aniqlangan. Bu zararkunandalar mevali daraxtlarning turli qismlariga ( ildizi, yog'ochlik qismi, novdalari, bargi, kurtagi, gullari, mevasi) katta zarar yetkazadi. Birgina olma qurtiga qarshi o'z vaqtida kurash choralari olib borilmasa olma va nok hosilining 50 xatto 80-100 % yo'qotilishi aniqlangan, yoki toq ipak qurti bilan zararlangan olma, nok, olcha, olxo'ri, o'rik, jiyda, bodom, yong'oq, pista kabi mevali daraxtlarning o'sha yili, bazan esa kelgusi yili ham meva bermasligi aniqlangan [1,2,3].

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, bog'dorchilikda zararkunandalardan himoya qilish eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mevali daraxtlarni zararkunadalardan himoya qilishning o'ziga xos nozik tomonlari bor, chunki mevalarning, ayniqsa ertapishar navlarda zararkunandalarga qarshi uzluksiz insektisidlarni qo'llab bo'lmaydi, ikkinchidan zararkunandalarga qarshi kurash choralari olib borilayotganda faqat birgina zararkunandani hisdoba olmasdan, balki zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish lozim.

Zararkunandalarga qarshi samarali kurash choralari olib borish uchun ularning biologik xususiyatlarini o'rganish asosida kurash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shundan kelib chiqib, mevali daraxtlarning zararkunandalari tur tarkibini aniqlash va ularga qarshi qo'llanilayotgan kurash usullarini chuqur o'rganishni o'z oldimizga maqsas qilib qo'ydik.

2014- 2015 yillar davomida olib borilgan kuzatishlar natijasida olma, nok va behi kabi urug' mevali daraxtlarning zararkunandalar tur tarkibi aniqlandi. Bunda olma daraxtlariga kanalarning 4 turi, nok daraxtlarida 4 turi, behi daraxtida 3 turi zarar keltirishi aniqlandi (1-jadval).

1- Jadval

### Urug'li meva daraxtlariga zarar keltiruvchi asosiy zararkunandalar

| №  | Mevali daraxtlar zararkunandalari                                     | Olma | Nok | Bexi |
|----|-----------------------------------------------------------------------|------|-----|------|
| 1  | Nok kanasi ( <i>Eriophyes pyri</i> Pagst)                             | +    | +   |      |
| 2  | Do'lana kanasi ( <i>Tetranychus crataegi</i> Hirts)                   |      |     |      |
| 3  | Meva o'rgimchakkanasi ( <i>Tetranychus Viennensis</i> Zacher          | +    | +   | +    |
| 4  | G'ozao'rgimchakkanasi ( <i>Tetranychus urticae</i> koch)              | +    | +   | +    |
| 5  | Do'lana kanasi ( <i>Tetranychus crataegi</i> Hirts)                   |      | +   |      |
| 6  | Nok shira biti ( <i>Psylla vasilivi</i> sulz)                         | +    | +   | +    |
| 7  | Olma biti ( <i>Aphis pomi</i> De Geer)                                | +    |     |      |
| 8  | Pushti rang olma biti ( <i>Yezabura malifolii</i> Fitch)              | +    |     |      |
| 9  | Novda biti ( <i>Yezabura longipilosa</i> Mordv)                       | +    |     |      |
| 10 | Spiral shakilda burishtiradigan bit ( <i>Yezabura affinis</i> Mordv ) | +    |     |      |

|    |                                                             |   |   |   |
|----|-------------------------------------------------------------|---|---|---|
| 11 | Qo'rg'oshin tusli bit (Yezabura mali Ferr)                  | + |   |   |
| 12 | Zararkunanda nok biti (Yezabura piri Fonsc)                 |   | + |   |
| 13 | Reamyur biti (Yezabura reamuri Mordv)                       |   | + |   |
| 14 | Issiqxona biti (Myzodes persical sulz)                      | + |   |   |
| 15 | Qon biti (Eriosomo lanigerum Hausm)                         | + |   |   |
| 16 | Gunafsha tusli qalqondor (Paralatoria oleae Colv)           | + | + | + |
| 17 | Vergulsimon qalondor (Yepidosaphes ulmiz )                  | + | + | + |
| 18 | Nok oq qalqondori (suturaspis archangels kayae zndgr)       |   | + |   |
| 10 | Katta soxta qalqondor (Palolecanium bitu Berculatum Targ)   | + | + |   |
| 20 | Akatsiya soxta qalqondori                                   | + | + | + |
| 21 | Kaliforniya qalqondori (Diaspidotus perniciosus Comst)      | + | + | + |
| 22 | Olma unsimon qurti (Phenacoccus mespili Geoff)              | + |   |   |
| 23 | Komstok qurti ( Pseudococcus comstocki Kum)                 | + | + | + |
| 24 | Olma qandalasi (Stephanitis oshanini Vas)                   | + | + |   |
| 25 | Dorn barg filchasi (p. Dohrni Faust)                        |   | + |   |
| 26 | Zararli buzoqbosh                                           | + | + | + |
| 27 | Uch tishli buzoqboshi qo'ng'iz(Polyphylla tredentata Reitt) | + | + | + |
| 28 | Mart buzoqboshi qo'ng'izi Melolontha afflicta Ball).        | + | + | + |
| 29 | To'ron bo'g'isimon qo'ng'izi (Oxythyrea cinctella schaum).  | + | + | + |
| 30 | Yashil bronza qo'ng'zi Potosia marginicollis Pall)          | + | + |   |
| 31 | Kurtak parvonasi (Tmetoceraaellana f)                       | + | + | + |
| 32 | Barg parvonasi (recurvaria nonella Schiff)                  | + | + | + |

|    |                                    |   |  |   |
|----|------------------------------------|---|--|---|
| 33 | Olma qurti (Carpocapsa pomonellaY) | + |  | + |
|----|------------------------------------|---|--|---|

Barg bitlarining yetti turi olmaga, uch turi noklarga, uch turi behiga zarar yetkazadi. Bitlardan qon biti olma daraxtlariga zarar yetkazishi bilan alohida o'ringa ega, ular olma daraxtlarining ildiz, tana va shoxlarining shirasini so'rib, daraxtlarni zararlaydi.

Olma daraxtlariga koksidlarning olti turi, nok daraxtlariga ham olti turi, behiga to'rt turi zarar keltiradi. Shuningdek olma daraxtiga zararkunandalarning yana o'to'qqiz, noklarga o'n yetti tur, behilarga yana yetti turi zarar keltirishi aniqlangan.

Yuqorida sanab o'tilgan zararkunandalardan ayrim turlari olma, nok va behi daraxtlarining turli vegetativ va generativ organlariga katta talofat keltiradi, o'z vaqtida ularga qarshi kurash choralari olib borilmasa hosilning 50-80 hatto 100 % nobud bo'lishi, vegetativ organlarining kuchli shikastlanishi natijasida meva daraxtlari hosil bermasligi, hatto kelgusi yili ham ularning hosil bermasligi kuzatiladi. Ayrim tur zararkunadalar bilan kuchli zararlanish oqibatida nihollarning qurib qolishi kuzatiladi.

### **Foydalanilgan adabyotlar ro'yxati**

1. Захаваткин Ю. А. “Курс общей энтомологии“. -Москва “Агропропромиздат”, 1986. -С. 150-155
2. Мигулин А.А. Сельскохозяйственная энтомология. - Москва “Колос” 1983. –с. 408
3. Olimjonov R.A “Entomologiya “ Toshkent “O'qituvchi “, 1987. -b. 270
4. Xamrayev A.SH. Azimov J.A. Niyozov T.B. Sotiboldiyev Q.S. “Bog' tokzorlarning zararkunandalari, kasalliklari va ularga qarshi kurash tizimi” Toshkent “fan” 1995. –B. 155-158
5. Yaxontov V.V. O'rta osiyo qishloq xo'jaligi zararkunandalari. - Toshkent 1962. – B. 492-537